
Ovoz berish jarayonlarida musiqa va san'at maktabi jamoasi ham faol ishtirok etishdi

Farg'ona shahridagi 3-sonli bolalar musiqa va san'at maktabida joylashgan 15-referendum o'tkazuvchi uchastkada ham fuqarolar faol ishtirok etishmoqda.

Bugun erta tongdan O'zbekiston xalq hofizi Ilhomjon Ibrohimov rahbarligidagi musiqa va san'at maktabining o'qituvchilari ham o'z ovozlari berishdi. Shuningdek, o'qituvchilar va o'quvchilar tomonidan tayyorlangan madaniy dastur ham namoyish etilmoqda.

Quvonarlisi, siyosiy jarayon boshlanishi arafasida yangragan Davlat madhiyasi ham mazkur jamoa tomonidan jonli ijro etildi. Bu jarayonlar fuqarolarda katta taassurot qoldirdi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborotxizmati



2023-05-02 17:52:09